Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tizimining norma ijodkorligi sohasidagi faoliyati ayniqsa diqqatga sazovordir. Xususan, 2023-yilga kelib, davlatlarning umumiy manfaatlariga daxldor masalalarga oid 643 ta ko'p tomonlama shartnoma BMT Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yildagi 560 ta shartnomaga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi (United Nations, 2023).

Bu tendensiyalar davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi muloqot va hamkorlikning samarali forumi sifatida xalqaro tashkilotlarning o'rni beqiyos darajada ortib borayotganini isbotlamoqda. "Davlatlarning xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtiroki, – deydi ekspert va diplomat V.N. Fyodorov, – ularga o'z suverenitet huquqini amalga oshirish, xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsadlarga erishish uchun xalqaro maydonda o'z harakatlarini boshqa davlatlar bilan muvofiqlashtirish borasida qo'shimcha imkoniyatlar beradi" (Kovalev & Chernichenko, 2008). Mazkur maqola xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbalari, ularning tizimli tuzilishi va zamonaviy xalqaro munosabatlardagi ta'sirchanligini ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbalari, ularning tizimi va ta'sirchanligini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro huquq nazariyasi doirasida keng qo'llanadigan umumilmiy va maxsus ilmiy metodlar qo'llandi. Asosiy metod sifatida *tizimli tahlil (system analysis)* usuli tanlanib, diplomatik huquq manbalari yagona huquqiy tizim sifatida o'rganildi. Shuningdek, *qiyosiy-huquqiy metod* orqali xalqaro shartnomalar, odat huquqi va xalqaro tashkilotlar hujjatlarining o'zaro farqlari va o'xshash jihatlari tahlil qilindi. *Tarixiy-huquqiy metod* yordamida diplomatik huquqning shakllanish va rivojlanish bosqichlari o'rganildi, xususan, xalqaro tashkilotlar huquqiy institutlarining evolyutsiyasi tahlil qilindi. Bundan tashqari, *formal-yuridik metod* asosida huquqiy normalarning mazmuni, ularning yuridik kuchi va amaliy qo'llanishi yoritildi. Tadqiqotda shuningdek, *empirik kuza-tish va tahlil qilish* usullaridan foydalangan holda,

xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi amaliy holatlar o'rganildi. Ilmiy manbalar sifatida xalqaro konvensiyalar, BMT hujjatlari, xalqaro sud qarorlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining tizimi va ta'sirchanligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar

Xalqaro tashkilotlar davlatlar irodasini kelishtirish "makoni"gina bo'lib qolmay, balki xalqaro munosabatlarning aksariyat masalalari bo'yicha mustaqil aktorlar (subyektlar) sifatida ham ishtirok etadi. Masalan, BMT Nizomining 25-moddasiga muvofiq, Tashkilot a'zolari Xavfsizlik Kengashi-ning qarorlarini qabul qilish va ularni ijro etishga majburlar. Shu munosabat bilan, BMT Xalqaro sudi: "Xavfsizlik Kengashi BMT Nizomining 25-moddasi asosida qaror qabul qilganda, BMTga a'zo davlatlar unga rioya qilishga majburlar; bu qoida mazkur qarorga qarshi ovoz bergan Xavfsizlik Kengashi a'zolariga ham, Kengashda vakili bo'lmagan BMT a'zolariga ham taalluqlidir", deb ko'rsatma bergan (International Court of Justice, 1971). Xalqaro tashkilotlar faoliyatining sof yuridik ma'nodagi eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu ularning norma ijodkorligi funksiyasidir. Shu munosabat bilan V.I. Margiyev: "Xalqaro tizimning tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro tashkilotlar davlatlar bilan bir qatorda norma ijodkorligi hamda u bilan bog'liq kodifikatsiya va nazorat funksiyalarini amalga oshirish orqali jahon taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi", deb ta'kidlaydi (Margiev, 1998). Xalqaro tashkilotlar doirasidagi norma ijodkorligi katta ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro huquq doktrinasida "tashkilotlarning huquq ijodkorligi umuman xalqaro huquq ijodkorligi jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi" qayd etiladi (Timoshenko, 2020). Xalqaro normativ tizim xalqaro munosabatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirishning asosiy vositasidir. BMT Nizomining maqsad va prinsiplari asosida shakllangan global normativ tizimning mavjudligi zamonaviylikning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u zamonaviy xalqaro huquqning yuqori darajada rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Muhokama

Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqini uning muayyan shakllari va manbalarisiz ta-

savvur etib bo'lmaydi. Ushbu aksioma huquq tarmog'i, kichik tarmog'i (tarmoqchasi) va institutiga qo'yiladigan umumiy yuridik talablarga tayanadi. Huquq nazariyasiga ko'ra, biron-bir sohani mustaqil huquq tarmog'i sifatida e'tirof etish uchun uning o'ziga xos tartibga solish predmeti, uslubi, subyektlari va o'ziga xos manbalari mavjud bo'lishi shart. Muayyan sohaga xos va aniq manbalar mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu tarmoqning mustaqilligini e'tirof etib bo'lmaydi. Xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi munosabatlarni normativ tartibga solish – subyektlar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi va bunday normalar qat'iy xalqaro-huquqiy shakllarda mustahkamlanishi zarur. *De Arechaga* to'g'ri ta'kidlaganidek: "Manbalarni o'rganish huquqning o'zgarib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvidan iborat o'zgaruvchan jarayonning asosiy tamoyillarini tushunishga yordam beradi. Ushbu muammoni tahlil qilish hozirgi paytda qaysi huquqiy normalar amal qilayotganini aniqlashga imkon beribgina qolmay, ayni vaqtda huquqni aniqlashtirish mexanizmi hamda uning yangi voqeliklar va doimiy rivojlanib borayotgan ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuv vositasi hamdir" (Jiménez de Aréchaga, 1983). A. Ross ham shunga o'xshash fikrni bildirib: "Huquqning hayotiy pulsi va uni oziqlantiruvchi arteriyalardan biri huquq manbalarini tahlil qilishdir", – deb yozgan (Ross, 1999). Shunday qilib, huquq manbayi muayyan ifodalanish shakliga, normativ va majburiy xususiyatga ega bo'lib, subyektlarning irodasi va xalqaro-huquqiy majburlash (yoki davlat kuchi) mexanizmlari bilan ta'minlanadi. Shu ma'noda professor A.V. Malkoning huquq manbalarini uch o'lchamda ko'rib chiquvchi yondashuvi e'tiborga loyiqdir (Malko, 2018), bular: 1) moddiy ma'nodagi manba; 2) mafkuraviy ma'nodagi manba; 3) rasmiy-huquqiy ma'nodagi manba.

Xalqaro va milliy huquq manbalari o'rtasidagi nisbat haqida gapirganda, ko'pchilik olimlar ikkita muhim farqni ta'kidlaydilar:

Birinchidan, xalqaro huquq normalari uning subyektlari tomonidan ma'qullangan hamda ularning umumiy irodasini ifodalaydigan kelishuvlar asosida shakllanadi va bu hujjatlar xalqaro-huquqiy manba maqomiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, subyektlarning xalqaro huquq normalarida nazarda tutilgan subyektiv huquq-

lari boshqa xalqaro huquq subyektlarining subyektiv majburiyatlari bilan hamisha o'zaro uzviy bog'liqdir (Ushakov, 2003, p. 21). Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda quyidagi muhim jihatlarni ham qayd etish joiz:

Birinchidan, xalqaro huquqning manbalari xalqaro huquq subyektlarining o'zlari tomonidan yaratiladi, ijro etiladi va nazorat qilinadi. Milliy huquq manbalari (masalan, qonunlar) esa qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilinadi, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan hayotga tatbiq etiladi, ular buzilgan taqdirda esa sud hokimiyati tomonidan odil sudlov amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, xalqaro huquqning manbalari xalqaro hamda milliy miqyosda amal qilsa, milliy huquq manbalari faqat muayyan davlatning milliy yurisdiksiyasi doirasidagina kuchga ega bo'ladi.

Uchinchidan, xalqaro huquq manbalari ham xalqaro, ham milliy huquq subyektlari uchun huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Milliy huquq manbalari esa faqatgina o'sha davlat yurisdiksiyasidagi subyektlar uchun huquq va burchlarni belgilashi mumkin. Shunday qilib, xalqaro huquq manbalari, milliy huquq manbalaridan farqli ravishda, yanada demokratik tusga ega bo'lib, davlat chegaralari bilan cheklanib qolmay, umumiy (universal) xarakter kasb etadi.

N.A. Ushakovning fikricha, xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalari xalqaro huquq manbalari singari xalqaro munosabatlar subyektlarining xulq-atvor qoidalari ifodalangan va ushbu qoidalar xalqaro-huquqiy normaning sifatini beradigan shakldir (Ushakov, 2003, p. 22). Ushbu ta'rif eng keng tarqalgan bo'lib, adabiyotlarda (Gihl, 1957; Parry, 1965; Sørensen, 1946) tez-tez uchraydi hamda Amerika va Yevropa xalqaro huquqi ham manbaga ta'rif berishda asos sifatida qabul qilgan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar (Shaw, 1997; Harris, 1998) xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbalarini yoritishda xalqaro huquq manbalari singari Xalqaro Sud Statutining 38-moddasi mazmunini tahlil qilish orqali yondashdilar.

Mahalliy olimlar (Odilkoriev et al., 2003; Saidov, 2001; Tuzmukhamedov & Khakimov, 1998) xalqaro huquq manbalari singari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalariga nisbatan klassik normativ ta'rifdan kelib chiqadilar. Masalan, xalqaro huquq bo'yicha adabiyotlarda "xalqaro huquq manbalari – xalqaro munosabatlar

subyektlarining xulq-atvor qoidalari ifodalangan va ushbu qoidalar xalqaro huquqiy normaning sifatini beradigan shakldir”, deb ta’kidlangan. Shu bilan birga, mahalliy olimlar klassik ta’rifdan farqli ravishda xalqaro huquq manbayiga “Davlat irodasini muvofiqlashtirish natijalarini aks ettiruvchi davlat tomonidan tan olingan xalqaro-huquqiy normalarni belgilash shakllari” degan ta’rifni berishgan. Xalqaro huquq manbayining ushbu ta’rifni eng maqbullaridan biri deb hisoblaymiz. Fikrimizga qo’shimcha ravishda P.N. Biryukovning “Xalqaro huquq normasining ifodalash shakli xalqaro huquqning manbayi hisoblanadi” degan fikriga e’tibor qaratamiz (Biryukov, 1998). Bizningcha, bunday fikr eskirgan va dogmatikdir va bunday ta’rif sobiq Sovet Ittifoqi davridagi xalqaro huquq fanida mavjud edi. G.A. Matkarimova to’g’ri ta’kidlaganidek, “Sovetlar davrida xalqaro huquqqa nisbatan nigilistik munosabat mavjud edi” (Matkarimova, 2002). Bizningcha, xalqaro huquq singari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbayini uning shakllari darajasiga tushirmaslik kerak, chunki ifodalash yoki muvofiqlashtirish shakli xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining belgilaridan biri xolos. Masalan, D.G. Samxaradze: “Semantik va huquqiy jihatdan bu atamalar mutlaqo boshqacha”, – deb ta’kidlaydi (Samkharadze, 2006a). Xuddi shu muallif o’z tadqiqotida quyidagicha ta’kidlaydi: “Zamonaviy huquqshunoslarning “huquq manbayi” va “huquq shakli” atamaları haqidagi qarashlarining haqiqiyiligi, agar ular o’rtasida hech qanday farq bo’lmasa, qabul qilib bo’lmaydi” (Samkharadze, 2006b). Mahalliy olim I.M. Umaraxunov ham “xalqaro huquq shakllari” va “xalqaro huquq manbalari” tushunchalarini bir-biridan ajratish zarurligi haqida keskin to’xtalib: “Agar xalqaro huquq manbalari deganda allaqachon shakllangan xalqaro huquq normalarini ifodalash shakllari tushunilsa, hech qanday yordamchi manbalar haqida gapirish mumkin emas”, – deydi (Umarakhunov, 2003). Bizning fikrimiz “tor yoki rasmiy-huquqiy ma’noda xalqaro huquqning manbalari deganda xalqaro huquq subyektlari bir-biri bilan muloqot qilish jarayonida o’z xatti-harakatlarining kelishilgan qoidalari o’rnatadigan turli xil shakllar tushuniladi” deb hisoblaydigan mahalliy olimlarning xulosalari bilan mos keladi (Odilkoriev et al., 2003). Keng yoki moddiy ma’noda xalqaro tashki-

lotlarning diplomatik huquqi manbalari deganda, mazkur huquq tizimini keltiradigan insoniyat jamiyatining moddiy hayot sharoitlari nazarda tutiladi. Xalqaro huquq singari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining mohiyati va mazmunini tushinishda bu kabi keng va tor yondashuv juda ommalashgan hisoblanadi. Biroq shu bilan bir vaqtda, ko’pchilik olimlar xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbalarini, umuman xalqaro huquqni keng va tor ma’noda tushinishni tan olgan holda, aynan ularning tor normativ-rasmiy talqinidan kelib chiqadilar.

Yuridik adabiyotlarda “huquq manbalari” atamasi, odatda, huquq normalarining o’z aksini topish shakllariga nisbatan qo’llanadi. Xalqaro huquq doktrinasida qayd etilganidek, xalqaro huquq manbalari bevosita xalqaro huquq subyektlarining o’zlari tomonidan shakllantiriladi va bu jarayonning asosida subyektlarning turli sohalarida o’zaro hamkorlik qilish istagi yotadi. Taniqli huquqshunos olim A.N. Talalayev ushbu yo’nalishda shunday yozadi: “Faqat ikki yoki undan ortiq davlat irodasining birlashishi natijasida yuzaga kelgan umumiy irodagina xalqaro huquqning manbayi bo’lishi mumkin” (Talalae, 1963). Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbalari mohiyatini aniqlashda aynan shu yondashuv eng maqbul yo’l hisoblanadi. Zero, xalqaro huquqqa oid qator adabiyotlarda ham “xalqaro huquq manbayi – xalqaro huquq subyektlari irodasining ifodalanish usulidir”, deb e’tirof etilgan.

Umumiy iroda tushunchasiga to’xtalib, S.V. Chernichenkoning quyidagi xulosasini to’g’ri deb hisoblaymiz: “Yagona iroda va davlat irodasining yagona ifodasi haqida gapirganda, biz psixologik ma’nodagi irodani emas, balki ijtimoiy-huquqiy ma’nodagi iroda va uning tashqi ifodasini nazarda tutamiz. Ijtimoiy yoki huquqiy ma’noda iroda o’z-o’zidan emas, balki amaliy shaklda – iroda ifodasi o’laroq namoyon bo’lgandagina ahamiyat kasb etadi”. Shu bois professor S.V. Chernichenkoning “Kelishuv irodalar o’rtasida emas, balki irodaning tashqi ifodasi, ya’ni xohish-istaklarning namoyon bo’lishi o’rtasida yuz beradi”, degan fikri mutlaqo asoslidir. Xalqaro huquq, xususan, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbalarini tor ma’noda (normativ) tushinish keng ommalashgan. Masalan, A.G. Kibalnik va I.G. Solomonenkolar shunday ta’kidlaydilar: “Biz “xalqaro huquq

manbayi” tushunchasidan foydalanganda, faqat norma ijodkorligi va ayrim hollarda huquqni qo'llash faoliyati natijasi hisoblangan yuridik manbani tushunamiz”. “Ushbu tamoyildan kelib chiqib, davlatlar uchun yuridik majburiyat keltirib chiqarmaydigan “yumshoq huquq” toifasidagi hujjatlarni xalqaro huquq manbalari sifatida tan olish mumkin emas” (Kibalnik & Solomonenko, 2003). Demak, xalqaro huquq manbayining eng asosiy va belgilovchi xususiyati – uning huquqni qo'llovchi va muhofaza etuvchi subyektlar uchun yuridik jihatdan majburiy ekanligidir.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga faqat qisman qo'shilish mumkin. Shubhasiz, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi va umuman xalqaro huquq manbalari majburiy xarakterga ega bo'lishi lozim. Bu ushbu huquq sohasi manbalarining muhim belgilaridan biri bo'lsa-da, ammo eng asosiy xususiyati hisoblanmaydi. Xalqaro huquq doktrinasiga tayanadigan bo'lsak, huquq manbayini belgilovchi bosh omil – ikki yoki undan ortiq subyektlar irodasining uyg'unligidir. Binobarin, xalqaro huquqda bo'lgani kabi, xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining mohiyati va mavjudligini ham aynan xalqaro huquq subyektlarining irodasi belgilab beradi. Xalqaro huquq doktrinasida bo'lgani kabi, diplomatik va konsullik huquqi nazariyasida ham xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbalari ikki guruhga ajratiladi:

- Xalqaro shartnomalar, xalqaro huquqiy odatlar;
- Xalqaro sudlar qarorlari, nufuzli huquqshunos olimlarning doktrinalari.

Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining yordamchi manbalari xalqaro huquqning asosiy manbalaridan farqli ravishda, majburiy xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, Xalqaro sud tomonidan xalqaro huquq doktrinasida asosiy manbalarining mazmunini aniqlashda ularning mazmuni va boshqa qoidalarda turli xil kolliziyalar mavjudligi tufayli qiyinchilik tug'dirganda yordamchi manba sifatida qo'llanadi (Sattorov, 2005). Bunday mulohaza G.I. Tunkin (1960) tomonidan bildirilgan “Barcha yordamchi manbalar asosiy manbalardan farq qiladi, lekin ular xalqaro huquq normalari bo'yicha davlatlar o'rtasidagi kelishuvni belgilaydigan shakllar emas” degan fikr bilan tasdiqlanadi. Shunga qaramay, ular xalqaro huquqning muayyan normalarining mavjudligini aniqlashga yordam bergan holda

kelishuvlarni tuzish jarayonida muhim jihatni ifodalaydi. Hozirgi vaqtda ba'zi bir yordamchi manbalar nafaqat xalqaro huquqning muayyan normasi mavjudligi faktini aniqlashga qaratilgan, balki ular xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining umume'tirof etilgan mustaqil manbalari hisoblanadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlarning majburiy qaror-rezolyutsiyalari. Shu munosabat bilan, BMT Xavfsizlik Kengashining BMT xodimlari va unga aloqador xodimlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator rezolyutsiyalarini qayd etish mumkin. Biz G.I. Tunkinning “Yordamchi manbalarining asosiy manbalardan farqi ular subyektlarning kelishuvini to'g'ridan to'g'ri qayd etmaydi, balki bilvosita, ya'ni davlatlar tomonidan o'z huquqlarini ma'lum xalqaro tashkilotlar va organlarga berish orqali qayd etadi (xalqaro tashkilotlarning qarorlari, BMT Xalqaro sud qarorlari)” degan fikriga mutlaqo qo'shilamiz. Shunga ko'ra, nazarimizda, xalqaro huquq singari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbayi tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: xalqaro huquqni ifodalash shakllari subyektlarning kelishilgan xohish-irodasi; ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasidagi muvofiqlik xususiyati; xalqaro huquq normalarini yaratish vositalari; norma hosil bo'lish jarayonining o'zi. Nazariy va amaliy jihatdan alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan murakkab masala – bu umuman xalqaro huquq manbalarida bo'lgani singari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining manbasi haqidagi masala hisoblanadi, chunki xalqaro huquq manbalarining asosiy muammosi ularning ro'yxati aniq emasligi bilan bog'liq. Bu masala alohida e'tiborga loyiqdir.

Hozirgi kunga qadar xalqaro huquq manbalari institutidagi eng munozarali masala bevosita uning manbalari tizimidir. Shu o'rinda, xalqaro huquq manbalarining aniq ro'yxatini o'z ichiga olgan muayyan qoida mavjudmi yoki yo'q, degan haqli savol tug'iladi. BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasi yoki Xalqaro jinoyat sudi Statutining 21-moddasini shunday universal ro'yxat sifatida e'tirof etish mumkinmi? Aksariyat olimlar (Lukashuk, 1997; Kolosov & Kuznetsov, 1995; Bekyashev, 2004; Minasyan, 1960; Degan, 1990) xalqaro huquqda, milliy huquq tizimidan farqli o'laroq, manbalarining qat'iy ro'yxati ko'rsatilgan maxsus hujjat yoki norma mavjud emas, degan fikrni ilgari suradilar.

Biroq boshqa bir guruh tadqiqotchilar (Bekyashev & Volosov, 2018) eng nufuzli xalqaro-huquqiy hujjat hisoblangan BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasi 1-bandida xalqaro huquq manbalarining asosiy va yordamchi shakllar ro'yxati mustahkamlangan, deb hisoblaydilar. Ayrim olimlar esa BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasi yoki Xalqaro jinoyat sudi Statutining 21-moddasini ana shunday manba asosi sifatida tan olish bilan birga, uning universalligini inkor ham etadilar. Masalan, M. Xaitov bu borada shunday ta'kidlaydi: "Xalqaro huquq manbalarini o'rganishda mutaxassislar haqli ravishda ushbu manbalar ro'yxati keltirilgan BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasi tahliliga murojaat qildilar. Binobarin, Statutning 38-moddasi ko'plab ekspertlar tomonidan jiddiy tanqidga uchraganligi ham bejiz emas" (Khaitov, 2001).

Yuqorida aytib o'tilganidek, G'arb doktrinasi xalqaro huquqning manba bazasi g'oyasini asoslab, BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasiga tayanadi. Ushbu moddani bunday norma sifatida ko'rib chiqishga urinishlar asossizdir, chunki unda nafaqat xalqaro huquq normalari (xalqaro shartnomalar va xalqaro odat), shuningdek, ularni talqin qilish va qo'llashni osonlashtirish uchun mo'ljallangan huquqiy kategoriyalar ham ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, BMT Xalqaro sudi Statutining 38-moddasi yoki Xalqaro jinoyat sudi Statutining 21-moddasi mazmunidan ko'rinib turibdiki, belgilangan shakllar xalqaro huquqning barcha subyektlari uchun emas, balki ushbu sud organlari uchun manba hisoblanadi.

Bundan tashqari, ba'zi G'arb olimlari tadqiqotlarida mavjud bo'lgan nuqtayi nazar BMT Xalqaro sudi Statuti 38-moddasi yoki Xalqaro jinoyat sudi Statutining 21-moddasi xalqaro huquq manbalarining ro'yxatini asoslab bo'lmaydi, chunki ushbu moddalarda Xalqaro sud va/yoki Xalqaro jinoyat sudi tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishlarni hal etish uchun lozim bo'lgan ro'yxat mavjud. Ammo bu moddalarda haqiqatan ham shunday ro'yxat mavjud deb hisoblasak ham, ularda xalqaro huquqning asosiy prinsiplari, xalqaro tashkilotlarning majburiy qarorlari va davlatlarning bir tomonlama huquqiy axtarlari kabi manbalar ko'zda tutilmagan.

Xulosa

Fikrimizcha, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqi manbasi tushunchasiga: uning ifodalanish shakllari; davlatlarning o'z istak-xohishlarini kelishilgan holda ifodalashi; ikki yoki undan ortiq davlat o'rtasida kelishilgan holda yaratilganligi; xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi normalarini yaratish vositalari; norma hosil bo'lishi jarayonining o'zi kiritilishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning bevosita huquq ijodkorligi faoliyatining uchta asosiy turi borligini ta'kidlaymiz:

a) xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro shartnomalar tuzish;

b) tashkilot faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha a'zo mamlakatlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan qarorlar qabul qilish;

d) ichki huquqni yaratish va tashkilot ichidagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilish.

REFERENCES

- Bekyashev, K. A. (Ed.). (2004). *Mezhdunarodnoe publichnoe pravo [International public law]*. Prospekt.
- Bekyashev, K. A., & Volosov, M. E. (2018). *Mezhdunarodnoe publichnoe pravo. Praktikum, skhemy [International public law. Practicum, diagrams]*. Prospekt.
- Biryukov, P. N. (1998). *Mezhdunarodnoe pravo [International law]*. Yurist.
- Degan, V. (1990). Customary process in international law. *Finnish Yearbook of International Law*, 1.
- Gihl, T. (1957). *The legal character and sources of international law*. Stockholm.
- Harris, D. J. (1998). *Cases and materials on international law (5th ed.)*. Sweet & Maxwell.
- International Court of Justice. (1971). *Legal consequences for states of the continued presence of South Africa in Namibia (South West Africa) notwithstanding Security Council Resolution 276 (1970)*. ICJ Reports.
- Jiménez de Aréchaga, E. (1983). *Sovremennoe mezhdunarodnoe pravo [Contemporary international law] (G. I. Tunkin, Ed.)*. Progress.

- Khaitov, M. (2001). Istochniki mezhdunarodnogo gumanitarnogo prava (opyt gosudarstv Tsentralnoy Azii) [Sources of international humanitarian law (experience of Central Asian states)]. *International Law and International Relations*, (1), 32–37.
- Kibalnik, A. G., & Solomonenko, I. G. (2003). Istochnik i sistema mezhdunarodnogo ugovornogo prava [Source and system of international criminal law]. *State and Law*, (1), 80–86.
- Kolosov, Yu. M., & Kuznetsov, V. I. (Eds.). (1995). *Mezhdunarodnoe pravo [International law]*. International Relations.
- Kovalev, A. A., & Chernichenko, S. V. (Eds.). (2008). *Mezhdunarodnoe pravo [International law]*. Prospekt.
- Lukashuk, I. I. (1997). *Mezhdunarodnoe pravo. Obshchaya chast [International law. General part]*. BEK.
- Lukashuk, I. I., & Saidov, A. Kh. (2006). *Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari [Fundamentals of the theory of contemporary international law]*. Adolat.
- Malko, A. V. (2018). *Teoriya gosudarstva i prava v voprosakh i otvetakh [Theory of state and law in questions and answers]*. Yurist.
- Mamatqulov, A. (1997). *Xalqaro huquq [International law]*. Adolat.
- Margiev, V. I. (1998). *Pravotvorchestvo mezhdunarodnykh organizatsiy [Lawmaking of international organizations]*. Adygeya State University.
- Matkarimova, G. (2002). *Xalqaro huquq va O'zbekiston huquqiy tizimi [International law and the legal system of Uzbekistan]* (G' Abdumajidov, Ed.). TSIL.
- Minasyan, N. M. (1960). *Istochniki sovremennogo mezhdunarodnogo prava [Sources of contemporary international law]* (A. Ladyzhensky, Ed.). Rostov University Press.
- Odilkoriev, Kh. T., Ochilov, B. E., & Rakhmanov, A. R. (2003). *Mezhdunarodnoe publichnoe pravo [International public law]* (Kh. T. Adilkariyev, Ed.). TSIL Publ.
- Parry, C. (1965). *The sources and evidences of international law*. Cambridge University Press.
- Ross, A. (1999). *Textbook of international law (20th ed.)*. Washington, D.C.
- Saidov, A. Kh. (2001). *Xalqaro huquq [International law]*. Adolat.
- Samkharadze, D. G. (2006a). Istochniki sovremennogo mezhdunarodnogo prava [Sources of contemporary international law]. *International Public and Private Law*, (5), 12–18.
- Samkharadze, D. G. (2006b). *Vzaimodeystvie istochnikov sovremennogo mezhdunarodnogo prava [Interaction of sources of contemporary international law] (Abstract of doctoral dissertation)*. Peoples' Friendship University of Russia.
- Sattorov, D. (2005). Mezhdunarodnyy Sud OON: Istochniki primenimogo prava [International Court of Justice: Sources of applicable law]. *Law*, (2).
- Shaw, M. N. (1997). *International law (4th ed.)*. Cambridge University Press.
- Sørensen, M. (1946). *Les sources de droit international [The sources of international law]*. Diament.
- Talalaev, A. N. (1963). *Yuridicheskaya priroda mezhdunarodnogo dogovora [The legal nature of an international treaty]*. International Relations.
- Timoshenko, K. E. (2020). *Mezhdunarodnye organizatsii kak subjekty mezhdunarodnogo prava i ikh vliyanie na sozdanie mezhdunarodno-pravovykh norm [International organizations as subjects of international law and their influence on the creation of international legal norms]*. In T. V. Kashirina, S. A. Agureev, N. V. Vilskeya, & O. N. Petyukova (Eds.), *Aktualnye problemy mezhdunarodnykh otnosheniy i mezhdunarodnogo prava: Sbornik statey (pp. 523–530)*. Financial University under the Government of the Russian Federation.
- Tunkin, G. I. (1960). *Osnovy sovremennogo mezhdunarodnogo prava [Fundamentals of contemporary international law]*. All-Union Correspondence Institute of Law.
- Tuzmukhamedov, R. A., & Khakimov, R. T. (1998). *Xalqaro huquq asoslari [Fundamentals of international law]*. UWED.
- Umarakhunov, I. M. (2003). *Mezhdunarodnaya dogovorno-pravovaya praktika Respubliki Uzbekistan [International treaty and legal practice of the Republic of Uzbekistan]*. Akademiya.
- United Nations. (2023). *Doklad Generalnogo sekretarya o rabote Organizatsii (A/78/1) [Report of the Secretary-General on the work of the Organization]*. https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/sg_annual_report_2023_ru.pdf
- Ushakov, N. A. (2003). *Mezhdunarodnoe pravo [International law]*. Yurist.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2).